UO‘K 323:791.61-053.81(575.1)

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA KINEMATOGRAFIYANING O‘RNI

M.M. Akramov

Maqolada kinematografiyaning yoshlar madaniyati, siyosiy qarashlari va ruhiyatiga ta’siri o‘rganilgan. Globallashuv jarayonida ommaviy kommunikatsiya vositalarining ahamiyati, xorijiy kino sanoati vakillarining o‘z siyosiy, mafkuraviy g‘oyalarini butun dunyoga yoyish maqsadi yoritilgan. Milliy g‘ururni shakllantirishda tarixiy mavzudagi kino asarlarining ahamiyati tahlil etilgan. O‘zbekistonda sifatli kino mahsulotlarini yaratish bo‘yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: *kommunikatsiya, kinematografiya, siyosat, yoshlar, mafkura, vatanparvarlik, tarixiy mavzudagi filmlar*.

В статье исследуется влияние кинематографа на культуру, политические взгляды и психологию молодежи. Подчеркивается значение средств массовой информации в процессе глобализации, стремление представителей зарубежной киноиндустрии распространить на весь мир свои политические и идеологические идеи. Анализируется значение исторических фильмов в формировании национальной гордости. Даны выводы и предложения по созданию качественных фильмов в Узбекистане.

Ключевые слова: *коммуникация, кинематография, политика, молодежь, идеология, патриотизм, исторические фильмы.*

Axborot har qanday quroldan xavfliroq ekani isbotini topayotgan bugungi sharoitda jahondagi turli mamlakatlar siyosatida yoshlarni axborot bilan qamrab olish, ularning ongi va dunyoqarashiga ta’sir o‘tkazishning turli usul va uslublarini o‘rganish, ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu kabi jarayonlar jamiyat hayotining turli jabhalari, shu jumladan, kinematografiya sohasida ham faol davom etmoqda. Aynan shu sababdan ham kino san’atining siyosiy, madaniy, psixologik ta’sirini o‘rganishga qaratilgan qator tadqiqotlarga ehtiyoj paydo bo‘lmoqda.

Biz yashab turgan global olamda axborot oqimining kengayib borishi bilan dunyo media makonida bir qator o‘zgarishlar yuzaga kelmoqdaki, uning natijasi o‘laroq axboriy makonning globallashuvi, ommaviy kommunikatsiya vositalari va ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatining kengayishi bilan mass-medianing psixologik ta’siri va uning oqibatlarini o‘rganish muammolariga duch kelyapmiz [1. B. 38]. Shu o‘rinda alohida qayd etish lozimki, mazkur jarayonlarda, X.Mirzaahmedov ta’kidlaganidek, “jamiyat taraqqiyotida an’anaviylik bilan zamonaviylik o‘rtasidagi ziddiyatni kuzatish mumkin. Masalan, o‘zbek xalqining boy madaniy merosi unutilib, yengil-yelpi, oson hazm bo‘ladigan san’at mahsulotlarining yoshlar orasida urf bo‘lishi ilmiy jamoatchilikni ham xavotirga solmoqda” [2. B. 160]. Kishilar ongiga ruhiy jihatdan ommaviy tarzda axboriy-psixologik ta’sir ko‘rsatish manbasi esa ommaviy kommunikatsiya vositalari, axborot va targ‘ibot materiallaridir. Mazkur materiallar shaxs va jamiyat tafakkuri, ongi hamda dunyoqarashini manipulyatsiya qilish xususiyatiga ega. Ommaviy kommunikatsiya vositalari yaratgan dunyo manzarasi insonlarning yon-atroflarida sodir bo‘layotgan hodisalarga bo‘lgan munosabati hamda qarashlarini belgilab beradi, ikkinchi reallik ahamiyatiga molik bo‘ladi [3. B. 6]. Zero, odamlar ongiga ta’sir ko‘rsatish orqali istalgan axborot va mafkurani singdirish, istalgan g‘oyaning to‘g‘riligiga ishontirish hamda psixologik urush holatini yuzaga keltirish mumkin.

S.Zelinskiyning qayd etishicha, psixologik urushdan ko‘zlangan maqsad omma tafakkuriga ta’sir ko‘rsatish bo‘lib, unda manipulyatsiyaning juda ko‘plab usullaridan, jumladan, fuqarolarga g‘oyaviy “ishlov berish” shaklidan, targ‘ibotlardan foydalaniladi [4. B. 8]. Psixologik urushda manipulyator omma ongida o‘zi ista-

gan qarashni paydo qilib, shunga nisbatan munosabat oladi. Psixologik urush qurolli urushdan farqli o‘laroq axborot orqali amalga oshiriladi va yuqori samaradorlikka ega. Unda moddiy boyliklarga zarar yetmaydi, ko‘proq odam qamrab olinadi. Natijada esa nafaqat insonning, balki butun boshli bir jamiyatning taqdiri, qarashlari, borlig‘i o‘zgarib ketish ehtimoli balanddir.

Amerikalik sobiq razvedkachi Pol Laynbarjer psixologiyaning inson ongiga ta’siri haqida shunday yozgandi: “Avvalo psixolog inson tafakkurining e’tibor qilinmagan jihatlariga ishora qila oladi. U qanday qilib shaxsiy topqirlikni ommaviy qo‘rqoqlikka, ikkilanishni ishonchsizlikka, xurofotni g‘azabga aylantirib yuborish yo‘llarini yaxshi biladi. Psixolog bunday maqsadlarga insonlarning ong osti tuyg‘ulariga ta’sir etish, o‘sha hislarni material sifatida qo‘llash orqali erishadi.

Ikkinchidan, psixolog qarshi tarafning ruhiy holatini aniqlash metodlarini aytib berishi mumkin. U asirlar ruhiyatini o‘rganib, kerakli axborotni ola biladi.

Uchinchidan, u psixologik urush vaqtida targ‘ibotchilarga hissiyotlarni boshqarishni, dushman tarafga hamma gapni ham aytmaslikni, sovuqqon bo‘lishni o‘rgatadi.

Va nihoyat, psixolog targ‘ibot-tashviqot ishlari uchun samarali bo‘lgan vosita hamda usullarni tavsiya qilishi mumkin. Bular: radio, tarqatma qog‘ozlar, ovoz chiqaruvchi vositalar, mish-mishlar, asirlarga ma’lum axborotni berib, qo‘yib yuborish bo‘lishi mumkin. Shuning uchun u mavjud psixologik ta’sir vositalarini qo‘llash bo‘yicha ofitser-operativlar va razvedkachilar bilan doimiy hamkorlik qiladi” [5. B. 109].

Urush yillarida foydalanilgan psixologik ta’sir ko‘rsatishning mazkur usullari bugungi kunga kelib ommaviy kommunikatsiya vositalari yordamida faol qo‘llanmoqdaki, kishilar o‘zlari istamagan holda psixologik urushning ishtirokchisi yoki jabrlanuvchisiga aylanib qolmoqda. Psixologik urushning kuchli ta’sirini tushunish uchun AQSh sobiq prezidenti Jon Kennedining 1961 yilda aytgan quyidagi so‘zlarini eslash o‘rinli bo‘ladi: “Biz Sovet Ittifoqini oddiy urushda yuta olmaymiz. Chunki u – qulatib bo‘lmas qal’a. Ularni faqat boshqa usullarda yengishimiz mumkin. Bular: g‘oya, psixologiya, targ‘ibot va iqtisoddir” [6].

A.Morozovning qayd etishicha, psixologik urush vositalarining qay darajada kuchli ekaniga XX asr oxirida jangovar bo‘lmagan usullar bilan uchta yirik slavyan markazi – SSSR, Chexoslovakiya hamda Yugoslaviyaning parchalab yuborilishi yaqqol dalildir [6].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ma’lumki, psixologik urushda raqib tarafning xatti-harakati, nafaqat mamlakatga tashqi tomondan, balki ichki tomondan ham xavf tug‘diradi.

Bir qator olimlar texnika va axborot jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan zamonaviy muhitda omma ongi va ruhiga psixologik jihatdan ta’sir ko‘rsatishda ommaviy kommunikatsiya vositalari faol qo‘llanilayotganini [7] bot-bot takrorlab kelishmoqda. Shu o‘rinda ommaviy axborot vositalari hamda ommaviy kommunikatsiya vositalarini ajratib olish o‘rinli bo‘ladi. Ommaviy axborot vositalariga matbuot, radio, televidenie, axboriy internet saytlarini kiritsak, ommaviy kommunikatsiya vositalariga ulardan tashqari kino, teatr, reklamalar, video hamda audio shaklidagi materiallar, kitoblar ham taalluqlidir. Qayd etilgan vositalar orasida kinoning targ‘ibot-tashviqot vositasi sifatidagi roli yaxshi ma’lum. Bu jarayonda kino, nafaqat, ommaviy kommunikatsiyaning kuchli vositasi, balki ko‘ngil ochishning eng keng tarqalgan turlaridan biri hamdir. Yangidan-yangi kinozallarning ochilishi, ularga tashrif buyuruvchilar sonining ortib borishi, internet imkoniyatlarining kengayishi, seriallarga qiziqishning ortishi buning yaqqol isbotidir.

Milliy filmlarni tomosha qilishga asosiy sabablardan biri tomoshabinning film mavzusi, undagi bosh qahramonning milliy qadriyati va kundalik o‘y-tashvishlariga tarixiy, madaniy va mental jihatdan yaqin bo‘lishidir [8. B. 60]. To‘g‘ri, film xalqqa bugungi kunning o‘y-tashvishlarini ko‘rsatib berishi bilan tomoshabin auditoriyasiga ega bo‘lishi mumkin. Biroq bugungi kunda dunyo miqyosida nafaqat zamonaviy, balki tarixiy filmlar va seriallar soni ham ortib bormoqda. T.D.Martsinkovskaya qayd etganidek, zamonaviy jamiyatda tarixga bo‘lgan kuchli qiziqish kuzatilib, tarixiy faktlarga asoslangan kino va telefilmlar ko‘plab ishlab chiqarilmoqda. Bu bilan jamiyat “zamonlar orasida aloqa o‘rnatish”ga harakat qilayotgani kuzatiladi [9. B. 12].

O‘zbek tomoshabinlari tomonidan yaxshi qabul qilingan turk va koreys seriallari yuqoridagi fikrga yaqqol dalil bo‘la oladi. Turk ijodkorla-

rining “Muhtasham yuz yil”, “Kosem”, “Tirilish. Ertug‘rul” seriallari nafaqat Turkiya, balki butun dunyoda mashhur bo‘ldi. Ko‘plab xorijiy tillarga o‘girilib, YouTube portalidan million martalab ko‘rildi, ko‘plab nufuzli xalqaro mukofotlarni qo‘lga kiritdi. Kishilar mazkur seriallar qahramonlariga o‘xshashga harakat qila boshladilar, ularning kundalik hayotini, turmush tarzini o‘rganish, taqlid qilishni boshlashdi.

Yuqorida sanalgan tarixiy mavzudagi turk seriallari Turkiyaning ATV xususiy telekanali tomonidan suratga olingan va namoyish etilgan bo‘lib, bu ommaviy axborot vositasi “Turkuvaz Medya Grubu” media xoldingiga tegishlidir. Mazkur kompaniya Turkiyaning yirik “Cal?k Holding” kompaniyasi guruhi tarkibiga kirib, unga Turkiyaning amaldagi Prezidenti kuyovi Berat Albayrak boshchilik qiladi. Bundan kelib chiqadiki, tarixiy seriallarni ishlash, Turkiyaning g‘oya va mafkurasini imkon qadar kengroq ta’sir qildirishdan aynan Turkiya hukumati manfaatdordir.

Ayni kunlarda suratga olish ishlari davom etayotgan “Hukmdor Usmon”, ya’ni usmoniylar imperiyasiga asos solgan Usmon G‘oziy hayoti, faoliyati va janglariga doir tarixiy film garchi o‘zbek televideniesi orqali efirga uzatilishi to‘xtatilgan bo‘lsa-da, hozirgacha o‘zbekistonliklar tomonidan internet tarmog‘i orqali turk yoki rus tilida katta qiziqish bilan tomosha qilib kelinmoqda. Yoki ikki minginchi yillarda o‘zbekistonliklar tomonidan sevib tomosha qilinib, yoshlarning taqlidiga sabab bo‘lgan koreys tarixiy seriallarini olaylik. “Jumong”, “Saroy javohiri”, “Dengizlar hukmdori”, “So‘nggi qirolicha” seriallari o‘zbek telekanallari orqali hozirgacha qayta-qayta namoyish etib kelinmoqda.

Shu o‘rinda asosli savol tug‘iladi: “Turk yoki koreys kinoijodkorlari tomonidan shunday yirik byudjetli, murakkab sahna va liboslarga ega tarixiy filmlarning yaratilishi zamirida qanday maqsad va vazifalar yotadi? Mazkur seriallarning ishlab chiqarilishi hamda dunyo miqyosida keng tarqalishi bilan qanday jarayonlar yuzaga keldi?” Bu savollarga quyidagicha javob berish mumkin:

Birinchidan, mazkur filmlar g‘oyaviy jihatdan millat g‘ururini oshiradi;

ikkinchidan, xalq va mamlakatning boy tarixini, madaniy merosini dunyoga namoyish etish orqali mazkur davlatga bo‘lgan hurmat va intilishni paydo qiladi;

uchinchidan, o‘sha mamlakat tili va madaniyatini o‘rganishga qiziqish ortib boradi;

to‘rtinchidan, mamlakatning turistik salohiyati oshadi;

beshinchidan, yoshlarda vatanparvarlik ruhi shakllanadi;

oltinchidan, hukumatda milliy manfaatlarga mos bo‘lmagan tarixiy faktlarni buzib, bo‘rttirib yoki o‘zgartirib ko‘rsatish imkoniyati yuzaga keladi.

Masalan, birgina “Hukmdor Usmon” serialining birinchi qismi namoyish etilganidan so‘ng YouTube portalida minglab izohlar qoldirilgan [10]: turkiyalik Aya Yasin: Dunyoning turli burchaklaridan bu serialni tomosha qilishlari qanday yaxshi; braziliyalik Markos Bruno: Biz braziliyaliklar bu serialni sevamiz; turkiyalik Ebru Yandash: “Shunday tarixiy serialni ham millatimiz, ham dunyoga tanitgan Mahmud Bozdag‘ og‘amga salomlar va tashakkurlar”; Lotin Amerikasidan XxXGaitoMixXxX: “Ispanchada ham subtitrlar beringlar, iltimos, “Ertug‘rul”ni ko‘rganimda oshiq bo‘lganman, bu serialni ham juda ko‘rgim kelyapti”; portugaliyalik Tovi: “Portugal tiliga ham tarjima qilinglar, turklarning shunday seriallarini sevaman, qanday boy madaniyat”; turkiyalik Alparslan Yildirim: “Dunyoning har burchagidan qardoshlarimiz yozishibdi, qanday yaxshi, hammamiz birmiz, qalbimiz bir, Alhamdulillah”; Hindistondan Gov VHSS for the Deaf, Jagathy: “Ingliz tilida ham subtitr qo‘sha olasizlarmi, iltimos? Netflixda “Ertug‘rul”ni ko‘rib, yoqtirib qolgandim. Osmanning ham Netflixga qo‘yilishidan umidvorman. Ajoyib ish, ajoyib jamoa!”; ispaniyalik Xose Rene Amador: “Ertug‘rul” seriali juda qiziq edi, turk imperiyasiga asos solingunga qadar turkmanlarning yangi yerlarga ko‘chib o‘tishi, ichki xoinliklar, mo‘g‘ullarga qarshi keskin kurash ko‘rsatilgan edi, Usmon birinchi tarixi bilan bog‘liq bu serialni ham ko‘rmoqchiman. Qatnashayotgan aktyorlar jamoasini tabriklayman. Ko‘rsatilgan e’tibor uchun Turkiya prezidenti Rejep Tayyib Erdog‘anga rahmat”; ukrainalik Anna Fedorova: “Biz Ukrainadanmiz va turk tilini bilmaymiz, lekin tarixingizning qiziqarli tomonlarini ko‘rishni juda xohlaymiz, oldindan rahmat. Hurmat bilan ukrainalik do‘stlaringiz”; Lotin Amerikasidan Luz Adriana Valenzuela de Lovon: “Netflix serialni portalga kiritishi kerak va shunda bu tarixdan to‘lig‘icha bahramand bo‘lar edik”. Bu kabi

izohlar tarixiy seriallarning dunyo bo‘ylab naqadar keng tarqalganidan, shuningdek, yuqorida keltirilgan oltita maqsadga tinchlik yo‘li bilan erishilganidan dalolat beradi.

Tarixiy seriallarning asosiy tomoshabinini yoshlar qatlami tashkil etadi. Zero, bugungi texnika asrida yoshlarning ijtimoiylashuvi ta’lim, tarbiya, ajdodlarning hayotiy tajribalarini o‘rganib, undan xulosa chiqarish asnosida shakllanib bormoqda.

Hozirgi davrda ommaviy kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi ham tarixiy seriallarni dunyoga tez va oson tarqatishda, targ‘ib qilishda bir qancha qulayliklar tug‘diradi, kino sanoatining “yumshoq kuch”idan oson foydalanish imkonini beradi. Kinematografiyaning “yumshoq kuch” sifatidagi samaradorligidan keng foydalanib kelayotgan yana bir katta sanoat – bu “Hollivud”dir. Uni zamonaviy AQSh madaniy siyosatining norasmiy quroli sifatida ko‘rish mumkin. “Ommaviy madaniyat”ning butun dunyo bo‘ylab yoyilishida ham aynan “Hollivud”, uning ta’sir kuchi katta yordam berdi. Undan tashqari ommaviy kommunikatsiya vositalari yordamida AQSh “pop-madaniyat”ni butun dunyoga “eksport” qildi, mazkur jarayonning submadaniyat darajasida ta’sir kuchiga ega bo‘lganini e’tirof etish shart [11. B. 133]. Mazkur jarayon shunchalik shiddat bilan sodir bo‘ldiki, hatto AQShlik siyosatchilar ham unga qarshi fikr bildira boshlashdi. Masalan, 2000-yilda demokratlar partiyasidan AQSh vitse-prezidentligiga nomzod bo‘lgan senator Jo Liberman kino ishlab chiqaruvchilarni hatto bolalarga mo‘ljallangan filmlarda ham tajovuzni targ‘ib qilishda aybladi. VVS kanaliga bergan intervyusida Liberman “Men kinoni sevaman, musiqani sevaman, ammo ko‘ngilochar mahsulotlar sanoatida tajovuz, jinsiy munosabatlar, beadabliklarni juda ko‘p targ‘ib qilishyapti. Bu esa bolalar tarbiyasida ota-onalarning ishini og‘irlashtirmoqda va bugungi bolalar qadriyatlarni hurmat qilmay qo‘ydi”, degan edi [12]. Senator hatto qonunchilik doirasida kinematograflar uchun ayrim chegaralar qo‘yish taklifini ham bildirgan.

Garchi AQSh hukumati va “Hollivud” o‘rtasida odamlar nazdida doimiy kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar bo‘lib tursa-da, AQSh tashqi madaniy siyosatining norasmiy asosiy quroli, Amerika imijini dunyo maydonida tanitadigan asosiy omil – bu Hollivud kinematografidir. “Kassabop” filmlar butun dunyo aholisi tomonidan intiqlik bilan kutiladi, narxidan qat’i nazar chipta xarid qilinadi, kino zallari to‘ldiriladi. Ya’ni, “yumshoq kuch” ta’siri o‘laroq, kishilar AQSh tomonidan “eksport” qilinayotgan madaniyatni dunyoning istalgan burchagidan turib, o‘z mablag‘i hisobiga sotib olishadi. Demak, AQSh o‘zi uchun manfaatli bo‘lgan natijani boshqalarni maftun qilgan holda oladi. Aynan kinematografiya vositasida AQSh o‘z mamlakati imijini shunday darajada mustahkamladiki, bugungi kunda dunyo aholisining asosiy qismi unga “sehri diyor” sifatida talpinmoqda.

Kinoning nafaqat ijtimoiy, psixologik, madaniy hayotga, balki siyosatga, siyosiy tuzumga ta’sirini Ukrainaning amaldagi prezidenti Vladimir Zelenskiy tajribasida ko‘rish mumkin. Saylovlargacha aktyorlik va shoumenlik bilan shug‘ullangan V.Zelenskiyning yirik loyihalaridan biri siyosiy komediya janridagi “Xalq xizmatchisi” (“Sluga narodu”, 2015-yil, 3 ta mavsum, 51 qismdan iborat) teleseriali edi. Teleserialning rasmiy shiori “Navbatdagi Prezidentning tarixi” deb atalib, tez orada millionlab insonlar qalbini zabt etdi. Mazkur kino asarda V.Zelenskiy qanday boshqaruvchi edi? Xalqni ichidan tushunadigan va uning mehriga sazovor bo‘lgan rahbar obrazini yaratgan V.Zelenskiy tomoshabinlar ongida “real hayotda ham u shunday boshqaruvchi” sifatida muhrlandi.

Rahbarlik vazifasi, mas’uliyati oddiy xizmatchilarga nisbatan qo‘yiladigan talabdan o‘ziga xos tarzda farq qilar ekan, albatta ushbu lavozimda faoliyat yurituvchi shaxsga nisbatan talab ham shunchalik yuqori bo‘ladi [13. B. 60]. Rahbar kadrlarga qo‘yiladigan talablar haqida A.Yuldashev shunday yozadi: “samarali boshqarish uchun, albatta, keng qamrovli, chuqur bilimlar ham talab qilinadi. Bu bilimlarni boshqaruv faoliyatida unumli qo‘llash uchun rahbar xodimlar shaxsiy tajriba va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim [14. B. 113]. Bu jarayonning asosiy ijtimoiy-psixologik jihatlari, xususan, yoshlarning jamiyatda tutgan o‘rni ijtimoiy normalar, ularning ma’naviy qadriyatlarida aks etadi. Mazkur normalar, ma’naviy qadriyatlar yoshlarning xatti-harakati, faoliyati, muammolari, qiziqish hamda orzu-umidlarini belgilab beradi [15. B. 86]. Yuqorida keltirilgan ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan “prezident aktyor” boshqaruvidagi mamlakat 2022-yil fevralidan to bugun-

gi kunga qadar Rossiya va Ukraina o‘rtasidagi urushdan aziyat chekib kelmoqda.

Kinotanqidchi Yaroslav Zabaluevning fikricha, “Xalq xizmatchisi” serialidagi voqealar real hayotga ko‘chgan. Uning ta’kidlashicha, serial mualliflari auditoriya bilan muloqot qilishning o‘zi xos yo‘lini o‘ylab topishadi. Sahna ko‘rinishlari bu borada tayyorlov jarayonini o‘tab berdi, ya’ni mazkur yillar mobaynida V.Zelenskiy, nafaqat zukkolikning, balki jasurlikning yuqori darajasiga erisha bordi. Serial voqealari Ukrainaning sobiq prezidenti Kuchmadan tortib oligarx Kolomoyskiy, oligarx va Ukrainaning o‘sha paytdagi prezidenti Poroshenkogacha bog‘lanadi [16].

V.Zelenskiyning saylovoldi kampaniyasi tomoshasifat boshlangan bo‘lib, saylovchilar bilan ilk uchrashuvlarida uning o‘zini biroz yo‘qotib qo‘ygani sezilgandi. 2018-yilning oxirlarida Dmitriy Gordon bilan uch soatlik suhbat mobaynida V.Zelenskiy o‘zining nomzodini saylovda ilgari surish taraddudida ekanini ilk bor e’lon qildi. Bayram kunlari siyosatchilar hamda zodagonlarning qarshisida chiqish qilganida orttirgan taassurotlari bilan, mamlakat taqdiriga nisbatan xavotiri bilan bo‘lishdi.

“Xalq xizmatchisi” serialidagi asli o‘qituvchi bo‘lgan, keyinchalik prezident etib saylangan Vasiliy Goloborodko rolini o‘ynagan Vladimir Zelenskiy va uning jamoasi kino san’atining nohoyatda katta ta’sir kuchidan foydalanib, xalq ongiga agar V.Zelenskiy prezident bo‘lsa qanchalik adolatli, xalqparvar va haqiqiy lider rahbar bo‘la olishi g‘oyasini singdira olgan. Fikrimizcha, bu serial o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan. Serialda bosh qahramon obrazini yaratgan V.Zelenskiy imijini boshqa rakursdan ko‘rsatish, uni xalqqa tanishtirish, g‘oyalariga ishontirish va aholi ongini manipulyatsiya qilish orqali, siyosiy texnologyalar vositasida muayyan shaxsni hokimiyat tepasiga olib kelish bir necha yillik aniq reja asosida amalga oshirilgan, deyish mumkin.

Faktlarga e’tibor qiladigan bo‘lsak, 2019 yilgi saylovlarda V.Zelenskiy nomzodini ilgari surgan siyosiy partiya 2016 yil 13 aprel kuni “Qat’iy o‘zgarishlar partiyasi” nomi bilan ro‘yxatga olingan bo‘lib, 2017 yil 2 dekabr kuni partiya nomi “Xalq xizmatchisi” deb o‘zgartirildi. Partiyaning yangi nomi sifatida 2015 yil noyabr oyida ekranlarga chiqqan, V.Zelenskiy bosh rolni ijro etgan “Xalq xizmatchisi” teleseriali nomi tanlandi.

V.Zelenskiy 2018 yil dekabr oyida Ukraina prezidentligiga o‘z nomzodini qo‘yishi haqidagi rejasini e’lon qildi. 31 dekabr kuni yangi yil kirib kelishiga bir necha daqiqa qolganida V.Zelenskiyni qo‘llab-quvvatlovchi ayrim shaxslar tomonidan tashkil etilgan “1+1” telekanali orqali V.Zelenskiyning Yangi yil tabrigi amaldagi Prezident Poroshenkoning an’anaviy bayram tabrigi bilan bir vaqtda efirga uzatildi. Mazkur tabrikda V.Zelenskiy prezidentlikka o‘z nomzodini qo‘yish haqida qaror qabul qilgani haqida e’lon qildi va kattagina shov-shuvga sabab bo‘ldi. “1+1” telekanali texnik xatolik sababli Zelenskiyning tabrigi amaldagi prezident tabrigi bilan bir vaqtda efirga ketib qolganini e’lon qilsa-da, lekin bu ongli ravishda qilingan siyosiy taktika bo‘lganligi keyinchalik jamoatchilikka ma’lum bo‘lib qoldi.

2019-yil 21-yanvar kuni “Xalq xizmatchisi” siyosiy partiyasi Vladimir Zelenskiyni Ukraina prezidentligiga nomzod sifatida ko‘rsatdi. Yanvar yakunida esa barcha saylovoldi so‘rovnomalarda V.Zelenskiy nomzodi birinchi o‘ringa chiqib oldi. Fevral oyida V.Zelenskiy reytingi 25-30 % ga, mart oyi o‘rtalarida esa 34 % ga oshdi. 2019 yil 31 mart kuni Ukraina prezidentligiga saylovlarning birinchi bosqichi bo‘lib o‘tdi. Unda 39 nafar nomzod ishtirok etdi va V.Zelenskiy 30,2 % ovoz bilan birinchi o‘rinni egalladi. Bu ko‘rsatkich amaldagi prezident Pyotr Poroshenko ko‘rsatgan natijadan (15,9 %) ikki barobar ko‘p edi. 21 aprel kuni bo‘lib o‘tgan saylovlarning ikkinchi turida V.Zelenskiy va Poroshenko o‘zaro bellashdi, Ukraina Markaziy saylov komissiyasi ma’lumotiga ko‘ra V.Zelenskiy 73,2 % ovoz to‘plab (13,5 mln. saylovchilarning ovozi), Ukraina prezidenti etib saylandi.

Mazkur voqea kinematografiyaning cheksiz ta’siri, inson dunyoqarashi, fikrini boshqarishga qodirligini ko‘rsatib, mamlakat siyosiy hayotida kinoga bo‘lgan e’tiborning tadrijiyligiga e’tiborsiz bo‘lish mumkin emasligini bildiradi. Yuqoridagi voqealar tahlili asosida aytish mumkinki, insonni ruhiy poklikka yetaklaydigan, qalbini iymon-e’tiqod nurlari bilan charog‘on qiladigan va yuksaltiradigan mezonga nisbatan biz ma’naviyat deb nom berar ekanmiz, demak, inson ongining boshqarilishiga yo‘l qo‘ymaydigan, tahliliy-tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi omillarga har qanday jamiyatda ehtiyoj katta.

Yoshlarda ma’naviy qadriyatlar va siyosiy mafkuraning shakllanishi o‘ta murakkab hamda uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Shuningdek, psixologik ta’sirga uchrash hamda siyosiy g‘oya va mafkuralar ortidan ergashish yoshlar orasida ko‘proq uchraydi.

Mass-media vositalari, jumladan, kinematografiya ma’lum siyosiy doiralarning g‘oyalarini kuchaytirish, tarqatish, omma ongiga bevosita hamda bilvosita singdirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu esa milliy o‘ziga xoslik va madaniyatga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Kinematografiya fuqarolik jamiyati rivojining turli yo‘nalishlarini ishlab chiqar, kino va siyosatning o‘zaro hamkorligi ortida inson ongiga ta’sir vazifasi turar ekan, bu orqali nafaqat yoshlar, balki jamiyat ongi, tafakkuri, kelajakka bo‘lgan maqsad ham boshqariladi. Kinematografiya yoshlar madaniyati, siyosiy dunyoqarashi va ruhiyatining shakllanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omil bo‘lsa-da, afsuski, bu siyosiy unsurdan mamlakatimizda amalda samarali foydalanilmayapti. Ya’ni, xorijiy film va teleseriallar, ulardagi g‘oyalarga munosib javob qaytara oladigan milliy mahsulotlar yaratilmayapti, deb aytish mumkin.

Taklif sifatida shuni aytish kerakki, jahon ommaviy kommunikatsiya makonida sog‘lom raqobatga kirishish uchun o‘zbek kino sanoati tomonidan ishlab chiqilgan kinofilmlar mavzusi yoshlarga qiziqarli bo‘lib, ularning kundalik o‘y-tashvishlari, qiziqishlari, muammolarini aks ettirishi, filmning maqsadi esa yoshlarning ijtimoiy darajasini oshirishga qaratilgan bo‘lishi darkor. Biroq filmlarda vatanparvarlik g‘oyalarini qahramonlar so‘zlarida emas, balki xatti-harakatida aks ettirish, bu bilan tomoshabinning “me’dasiga tegmaslik”ni ta’minlash muhim hisoblanadi. Ana shundagina vatanparvarlik filmlari yoshlarga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. *Латынов В.В*. Психология коммуникативного воздействия. – Москва: Институт психологии РАН, 2013. – 368 с.

2. *Мирзаҳмедов Х.* Ёшларда онлайнлашув маданияти // Жамият ва бошқарув, 2021. – № 1 (91). – Б. 158–161.

3. *Журавлев А.Л., Павлова Н.Д*. К междисциплинарной проблематике дискурса // В кн.: Ситуационная и личностная детерминация дискурса. – Москва: Издательство “Институт психологии РАН”, 2007. – 384 с.

4. *Зелинский С.А.* Информационно-психологическое воздействие на массовое сознание. – Санкт-Петербург: Скифия, 2008. – 404 с.

5. *Лайнбарджер П.* Психологическая война. – Москва: Воениздат, 1962. – 350 с.

6. Развал Союза Советских Социалистических Республик. Роль США в уничтожении нашей Родины [Электронный ресурс]. URL: http://usinfo.hvf.ru/sssrindex.htm (Дата обращения: 25.02.2023)

7. *Морозов А.М.* Психологическая война. [Электронный ресурс] http://psyfactor.by.ru/index.html (Дата обращения: 24.12.2022)

8. Основы психологической войны. (Краткий путеводитель для любознательных) [Электронный ресурс]. URL: https://psyfactor.org/opsywar.htm (Дата обращения: 24.04.2023).

9. *Каримова Н.* Киноиндустрия Узбекистана и её вклад в социально-экономическое развитие страны. – Ташкент: Baktria press, 2019. – 100 с.

10. *Марцинковская Т.Д.* Социальная и эстетическая парадигмы в методологии современной психологии // Психологические исследования, 2014. – Т. 7. – № 37. []. URL: https://psystudy.ru/index.php/num/article/view/595/698 (Дата обращения: 23.02.2022).

11. *Филомонов Г.* “Мягкая сила” культурной дипломатии США. – Москва: Российский университет дружбы народов, 2010. – 216 с.

12. Lieberman attacks Hollywood. [Online]. http://news.bbc.co.uk/2/hi/americas/879681.stm (Date of Access: 25.04.2022).

13. *Бекмуродов М*. Фавқулодда вазиятлар вазирлиги тизимида раҳбар кадрларни танлаш механизмлари // Жамият ва бошқарув, 2022. – №2 (96). – Б. 59–64.

14. *Юлдашев А*. Давлат фуқаролик хизматчилари касбий ўсишини бошқариш тизимининг илмий-амалий асослари // Жамият ва бошқарув, 2021, №1 (91). – Б. 112–115.

15. *Скрипкарь М.В*. Воздействие манипулятивных технологий кинематографа на процесс соци-

ализации и формирование ценностных ориентаций молодежи: Дисс. ...канд. социологических наук. – Чита, 2009. – 159 с.

16. Как Владимир Зеленский стал президентом, не переставая быть артистом. [Электронный ресурс]. https://style.rbc.ru/people/5db007ab9a79471fef1d7b94 (Дата обращения: 15.04.2022).

THE ROLE OF CINEMATOGRAPHY IN THE REALIZATION OF STATE YOUTH POLICY

Muzaffar M. Akramov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 3(71). 33-40.

[1]Agency for the Development of Republic Service under the President of the Republic of Uzbekistan, Taskent, 100163, str. Islom Karimov, 43 (Uzbekistan). E-mail: info@argos.uz

Keywords*: communication, cinematography, politics, young people, ideology, political consciousness, patriotism, historical films.*

This article discusses the impact of cinema on young people, their political views and ideology. It also analyzes the role and importance of mass communication in the modern world, the importance of foreign feature films aimed at spreading their political, cultural views throughout the world, creating a sense of national pride through the creation of national historical films.

In the scientific article, is learned and analyzed the bibliography on the psychological influence of cinematography on young people, the political role of films in the renewal and revolution of countries, psychological warfare as the influence on the political ideology of young people.

Nowadays Turkish and Korean historical films have a lot of influence on young Uzbeks and give them an interest in living in Turkey and South Korea. Also, these films make respect their history and honor as a great people. Movie buffs receive all historical movie scenes as historical facts. But, the creation of a movie depends on the artistic views of the film directors, and the story will also be changed according to their ideologies. Thanks to these factors, directors will give false arguments in their works.

The article also discusses the political games of Hollywood and its political influence to the whole world. Hollywood is effectively using “soft power” in the pursuit of its political goals.

The arguments about the relationship of politics and cinematography are also given in exemplary of the arrival of Vladimir Zelinski in the post of president of Ukraine. The former Ukrainian actor had a glory thanks to the serial films “Serve the people”, in which a teacher becomes the president of Ukraine. In the political processes of the electoral campaign, Zelinski was elected thanks to the influence of his films, in which people were used to seeing him as the Head of State.

Analyzing foreign films and their political and psychological influence, it can be noted that Uzbek cinematography is lagging behind in developing and influencing the political ideology of the country’s youth. Taking these factors into account, the work being done to develop the Uzbek national cinema must be accelerated. It is that the future of the country obeys the national and political ideology of the youth. And is very important the creation of patriotic films, in which patriotism is embodied not in the words of the heroes of the film, but in their activities.

And films in this way can develop the political ideologies and patriotic feelings of Uzbek youth.

References:

1. Latynov, V.V. (2013) *Psihologiya kommunikativnogo vozdejstviya* [Psychology of communicative influence]. Moscow: Institut psihologii RAN.

2. Mirzahmedov, H. (2021) Yoshlarda onlaynlashuv madaniyati [Online culture among young people]. *Jamiyat va boshqaruv*. No 1 (91). Pp. 158-161.

3. Zhuravlev, A.L., Pavlova, N.D. (2007) K mezhdisciplinarnoj problematike diskursa [On the interdisciplinary issues of discourse]. In: *Situacionnaya i lichnostnaya determinaciya diskursa* [Situational and personal determination of discourse]. Moscow: Izdatelstvo ‘Institut psihologii RAN’.

4. Zelinskij, S.A. (2008) *Informacionno-psihologicheskoe vozdejstvie na massovoe soznanie* [Information and psychological impact on mass consciousness]. Sankt-Peterburg: Skifiya.

5. Lajnbardzher, P. (1962) *Psihologicheskaya vojna* [Психологическая война]. Moscow: Voenizdat.

6. *Razval Soyuza Sovetskih Socialisticheskih Respublik. Rol' SSHA v unichtozhenii nashej Rodiny* [The collapse of the Union of Soviet Socialist Republics. The role of the United States in the destruction of our Motherland]. [Online]. URL: http://usinfo.hvf.ru/sssrindex.htm (Date of Access: 25.02.2023)

7. Morozov, A.M. (1996) *Psihologicheskaya vojna*. [Online]. URL: http://psyfactor.by.ru/index.html (Date of Access: 24.12.2022)

8. (2001) *Osnovy psihologicheskoj vojny. (Kratkij putevoditel dlya lyuboznatel'nyh)* [Online]. URL: https://psyfactor.org/opsywar.htm (Date of Access: 24.04.2022).

9. Karimova, N. (2019) *Kinoindustriya Uzbekistana i eyo vklad v social'no-ekonomicheskoe razvitie strany* [The film industry of Uzbekistan and its contribution to the socio-economic development of the country]. Tashkent: Baktria press.

10. Marcinkovskaya, T.D. (2014) Socialnaya i esteticheskaya paradigmy v metodologii sovremennoj psihologii [Social and aesthetic paradigms in the methodology of modern psychology]. *Psihologicheskie issledovaniya*. Vol. 7. No 37. [Online]. URL: http://psystudy.ru (Date of Access: 23.02.2022).

11. Filomonov, G. (2010) *"Myagkaya sila" kulturnoj diplomatii SShA* ['Soft power' of US cultural diplomacy]. Moscow: Rossijskij universitet druzhby narodov.

12. *Lieberman attacks Hollywood*. [Online]. http://news.bbc.co.uk/2/hi/americas/879681.stm (Date of Access: 25.04.2022).

13. Bekmurodov, M. (2022) Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida rahbar kadrlarni tanlash mexanizmlari [Mechanisms of selection of leading personnel in the system of the Ministry of Emergency Situations]. *Jamiyat va boshqaruv*. 2 (96). Pp. 59-64.

14. Yuldashev, A. (2021) Davlat fuqarolik hizmatchilari kasbij o'sishini boshqarish tizimining ilmij-amalij asoslari [Scientific and practical basis of the management system of professional growth of state civil servants]. *Jamiyat va boshqaruv*. 1 (91). Pp. 112-115.

15. Skripkar, M.V. (2009) *Vozdejstvie manipulyativnyh tekhnologij kinematografa na process socializacii i formirovanie cennostnyh orientacij molodezhi* [The implementation of manipulative technological cinematography and the process of socialization and formation of valuable orientation youth]. The dissertation for the candidate of sociological sciences. Chita.

16. *Kak Vladimir Zelenskij stal prezidentom, ne perestavaya byt artistom* [When Vladimir Zelensky became the president, he did not become an artist]. [Online]. https://style.rbc.ru/people/5db007ab9a79471fef1d7b94 (Date of Access: 15.04.2022).

Muallif haqida ma'lumot:

AKRAMOV Muzaffar Mahkamovich – Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti mustaqil izlanuvchisi. E-mail: mudoffar@gmail.com